

O'zbekiston Prezidenti Pokiston Prezidenti bilan uchrashdi



Islomobod shahrida 4-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti Orif Alviyning uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Prezidentlar bir-birini samimiy qutlab, O'zbekiston va Pokiston o'rtaсидаги strategik sheriklik munosabatlari har tomonlama rivojlanayotganini mammuniyat bilan qayd etdilar.

O'zbekiston Prezidentining Pokistonga davlat tashrifi tarixiy ahamiyatga ega ekani hamda hamkorlikni yanada kengaytirishga kuchli turtki bo'lishi ta'kidlandi.

2022-yilda mamlakatlarimiz muhim sana - diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligini nishonlaydilar. O'tgan vaqt mobaynida siyosiy muloqot va hamkorlikda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. O'zaro tovar ayriboshlashda jadal sur'at kuzatilmoqda. O'tgan yili, pandemiyaga qaramay, uning hajmi 50 foizdan ziyodga oshdi.

Uchrashuvda savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni izchil kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari Pokistonga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlarni olqishladilar. Ayni paytda hamkorlikni, shu jumladan gumanitar sohada kengaytirish uchun ulkan salohiyat mavjudligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz O'zbekiston va Pokistonning fan, ta'lim, yuqori texnologiyalar va yoshlarga doir siyosat sohalaridagi tashabbuslari mamlakatimizning Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasidagi maqsadlariga hamohang ekanligi qayd etildi.

Tomonlar sheriklikning ushbu yo'nalishini har tomonlama rivojlantirishga tayyor ekanliklarini tasdiqladilar. O'zbekiston Prezidenti astronomiya, astrofizika, fizika, matematika, virusologiya va robot texnikasi bo'yicha ilmiy-amaliy tadbirlarni o'tkazishda Islom hamkorlik tashkilotining "KOMSTEK" Ilmiy-texnik hamkorlik bo'yicha doimiy qo'mitasi imkoniyatlaridan foydalanishni taklif etdi.

Tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi. Mintaqaviy xavfsizlik va Afg'onistonidagi vaziyatga alohida e'tibor qaratildi.

Shavkat Mirziyoyev Orif Alviya mehmondo'stlik uchun minnatdorlik bildirib, yaqinlashib kelayotgan milliy bayram – Pokiston kuni munosabati bilan samimiy tabrik va eng ezgu tilaklarini izhor etdi hamda uni o'ziga qulay vaqtida mamlakatimizga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Uchrashuv iliq va do'stona muhitda o'tdi. Tomonlar ko'p qirrali munosabatlarni yanada kengaytirishga intilishi qat'iy ekanini tasdiqladilar.

Shu bilan O'zbekiston Prezidentining Pokistonga davlat tashrifi yakunlandi, Shavkat Mirziyoyev Tokshentga jo'nab ketdi.





Manba